

Norqulova Husnora Nodir qizi*Jizzax viloyati Baxmal tumanida tug'ilganman. 2024- yil**Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti Xorijiy tillar fakultetining 1- kursiga qabul qilinganman*

Ali bugun uyqudan erta uyg'ondi. Ruhi anchayin tetik va kayfiyati ham har qachongidan ko'tarinki edi. Nonushta qilib bo'lib qadrdon maktabi tomon yo'l oldi. U mashg'ulotlarga mas'uliyat bilan yondashdigan, tengdoshlari orasida faol bo'lishga harakat qiladigan, yaxshi va yomonning farqini yaxshigina ajrata oladigan o'n ikki yoshli bola. Maktabda o'qituvchisi Mehribon opa ham uning boshqalarga o'xshamasligini, undagi salohiyatni bilgan holda yordam va rag'batini ayamaydi. Ali bugun ham darslarda faol ishtirok etdi. So'ngida Mehribon opa bolalarga mustaqil topshiriq sifatida savol berdi.

- Bolalar, keyingi dars uchun hamma o'z nurini topib kelsin. Nima deb o'ylaysiz sizning nuringiz nima ekan? Nur deyilganda faqat, bizdan iliq taftini ayamaydigan quyosh yoki issiqlik beruvchi elektr nazarda tutilavermaydi. Shunday nurlar borki, ularning tafti hamda yorug'ligi ham umuman qolganlariga o'xshamaydi. Alini bu savol o'ylantirib qo'ydi. Quyosh va elektrdan tashqari yana qanday nur bo'lishi mumkin ekan. Hatto do'stlari bilan ham o'yinga qolmay uyiga shoshildi. Uyga kelsa bobosi o'zining shaxsiy kutubxonasida Muhammad Fuzuliy g'azallarini o'qib o'tirgan ekan. Ali ehtiyotkorlik bilan xuddi qushlarni uchirib yuborishdan qo'rqqan mergandek bobosining yoniga o'tirdi. Farishta yuzli Husan bobo nabirasiga jilmayib qaradi. Bu qarashdan shoshib qolgan Ali birdaniga: "Bobojon, nur nima degani?" , - deb so'rab qoldi.

- Nur bizning yorug'ligimizda, chirog'im. Charaqlaydigan oftobimiz ham.
- Ular biz uchun muhimmi?

- Ha, albatta, ular bo'lmasa biz qanday yashardik. Bilasanmi, inson uchun faqatgina tashqi yorug'lik emas, ichki yorug'lik ham kerak.

- Voy, bobo, bizning ichimizda ham nur bormi?

- Eng asosiy nur ichki nurdir. Tashqi nur hayotni qanchalik go'zallashtirsa, ichki nur ham insonni shunchalik go'zal qiladi. Ichki nurni avvalo o'zingdan qidirasan, U sening musaffo qalbingda va sog'lom ruhingda namoyondir. Inson qachonki o'z-o'zini anglasagina haqiqiy baxt va yorug'likni his qiladi. Bilasanmi, qalbi nurga, iymonga to'la bo'lgan pok qalblilarni zulmat aslo yenga olmaydi. Agarda sen ichki nuringni topa olsang, hayotingning eng qorong'u kunlarida ham yo'lingni yo'qotmaysan. Hayotga adolat ko'zi bilan qaraysan. Mabodo bu nurni yo'qotsang, tashqi nurning hech qanday ahamiyati qolmaydi. Kunlaring maqsadsiz, ma'nosiz va murakkab bo'lib o'tadigan bo'ladi. Bu shunchalik qo'rqinchli holatki, bora - bora sen bu muhitga ko'nikasan, ichki nur haqida o'ylashni, unga intilishni esa shunchaki to'xtatasan. Shuning uchun eng buyuk ma'naviy boyligingni ehtiyot qil, uni asra va unumli

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

foydalanishni unutma .Axir inson pok qalbi bilan go‘zal , bu esa albatta ichki nur bilan amalga oshiriladi

Ali bu gaplardan so‘ng juda quvonib ketdi. Lekin uning quvonchi ustozining savoliga javob topgani yoki darsda bu savolga javob berishi da emas , u o‘zi qidirgan nurni topgan edi .

